

Maktabgacha Yoshdagi Bolalar Ijtimoiy Faolligini Oshirishda Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlari Va Oila Hamkorligi

M. E. Rustamova

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institute, "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi dotsenti

Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy faolligini oshirishda ota-onalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga jalb etish bolalar uchun ham, ota-onalar uchun ham maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ham foydali hisoblanadi. Bu borada maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila bilan hamkorlikda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- ota-onalarga o'z farzandlarining tarbiyasi uchun davlat va jamiyat oldida javobgar ekanliklarini tushuntirib borish;
- ota-onalarni bola tarbiyasi uchun zarur bo'lgan bilim, malakalardan xabardor qilish (bolalarning yosh, anatomik-fiziologik va aqliy xususiyatlari, ularni oilada tarbiyalashning mazmuni, metodi, shart-sharoitlari bilan tanishtirish);
- O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari, "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturining mazmun-mohiyati bilan tanishtirish maqsadida o'quv seminarlar tashkil etish.

Bola maktabgacha ta'lim tashkilotida O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma, malakalari oila sharoitida davom ettirib, oilada egallagan eng yaxshi fazilatlarni maktabgacha ta'lim tashkilotida namoyon qilsa istalgan ijobiy natijalarga erishish mumkin. Bolalarga ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi yo'nalishi asosida ularning ijtimoiy faolligi rivojlantiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy faolligini oshirish- kommunikativlik - bolaning o'z "Men"i timsoli, o'ziga va atrof-olamga ishonish, himoyalanganlik hissi, bolaning shaxsiy darajada muloqot qilishga tayyorligi, atrof olamga ijobiy munosabati, eshitish va tinglashni bilish;

ijtimoiylashuv - individning jamoa yoki jamiyatga kirib borishi, mas'uliyat-boshlagan ishni yakuniga yetkazish qobiliyati, muayyan harakatlarni muvaffaqiyatli bajarish, o'z yutuqlarini tan olish, maqsadni belgilash va unga intilish ma'nosida tushuniladi. Bunday ijtimoiy malakalarni maktabgacha yoshdagi bolalarda qanday rivojlantiriladi? Ijtimoiy malakalarni rivojlantirish uchun nimalarga ko'proq e'tibor berish kerak? degan savollarga javob berishga harakat qilamiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy malakalarni rivojlantirishda muloqot asosiy o'rinni egallaydi.

Muloqot deganda insonlarning umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda, kelishilgan holda olib borgan o'zaro munosabati tushuniladi.

Muloqot bolaning ilk yoshidan boshlab psixik taraqqiyotining asosiy faktorlaridan biridir. Maktabgacha yoshda bolaning kattalar bilan muloqoti to'rt xil ko'rinishda bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi:

- vaziyatli- shaxsiy;
- vaziyatli- ishchanlik;

- vaziyatdan tashqari bilish;
- vaziyatdan tashqari- shaxsiy muloqot.

Tengdoshlari bilan esa uch xil munosabat shakllanadi:

- hissiy-amaliy;
- vaziyatli-ishchanlik;
- vaziyatdan tashqari- ishchanlik ko‘rinishlari mavjud.

Muloqot qilish motivlari va mazmuni o‘zgaradi, muloqotga kirishish malakasi va ko‘nikmasi shakllanib maktabga psixologik tayyorlikning komponentlaridan biri bo‘lmish muloqotga kirishish sifatida shakllanadi.

Bola sekin- asta kattalar bilan o‘z munosabatlarini aniqlay boshlaydi (kattalar bolalarga qanday munosabatdalar va boladan ular nimani kutadilar). Tengdoshlariga nisbatan qiziqish kattalarga bo‘lgan qiziqishga nisbatan kech ro‘yobga chiqadi. Tengdoshlari bilan muloqot turli jamoalarda shakllana boradi. Boshqa bolalar bilan munosabat shakllanishiga faoliyatlarining qanday olib borilishi va bolaning bu topshiriqlarni bajarish malakalari ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotdagi guruhlar - bu bolalarning birinchi ijtimoiy birlashmasi hisoblanadi, bu jamoada bolalar turli faoliyatlarda o‘z muloqotlarini boshqaradilar. Bolalar tashkilotida o‘zaro do‘stona munosabatni shakllantirishda turli nizolarga duch kelish mumkin. Ulg‘aygan sari maktabgacha yoshdagi bolalarning tengdoshlariga bo‘lgan munosabati o‘zgarib boradi, bolalar o‘rtoqlarini ishchanlik xususiyatlariga qarab emas (qiziq o‘yinlarni tashkil etish malakasi, tengdoshlari bilan kelishib ishlashi, kattalarga, kichkintoylarga yordami), balki shaxsiy sifatlariga qarab ham, ayniqsa, axloqiy sifatlariga qarab ham baholay boshlaydilar. Bu bolalarning axloqiy me’yorlar haqidagi tasavvurlarining shakllanishiga va axloqiy sifatlar mazmunini tushunishlariga bog‘liq.

Maktabgacha 6-7 yoshli bolaning muloqoti vaziyatli-shaxsiy, ya’ni, berilgan konkret vaqtdagi vaziyatni emas, balki “nima bo‘ldi” yoki “nima bo‘ladi” tarzidagi vaziyatni aks ettiruvchi sifatida bo‘ladi. Muloqotning asosiy mazmuni kishilar dunyosi, xulq-atvor qoidalari, tabiiy hodisalardan iborat bo‘ladi. Kattalar dunyo tabiatini ochuvchi ijtimoiy me’yorlar, ijtimoiy kontaktlar va odamlar orasidagi qoidalarning tashuvchisi bo‘lib sanaladi. Muloqot jarayonidagi yetakchi ehtiyoj – o‘zaro tushunish, his-tuyg‘ularni his qilish ehtiyojidir. Bola kattalar bilan o‘zining ham ijobiy, ham salbiy yorqin kechinmalari bilan o‘rtoqlashadi. Bu paytda ota-onalar hamda pedagoglarning asosiy vazifasi bolaning emotsiyalarini ularning bola hayoti uchun ahamiyatligini kamaytirmagan holda qabul qilishdan iboratdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy faolligini oshirishda oilaning tutgan o‘rni beqiyosdir. Bolalar oilada tarbiyalanadi va unda yuz beradigan voqealar ularga juda katta ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalar oilaga juda bog‘lanib qolgan bo‘ladi, chunki oila ularning jismoniy jihatdan barkamol bo‘lishini, ovqat, kiyim-kechak, uy-joy bilan ta’minlaydi, sog‘lig‘i haqida g‘amxo‘rlik qiladi;

Ularning hissiy bardamligini, jumladan, mehr ko‘rsatadi, qo‘llab-quvvatlaydi, nimaning yaxshiligi, nimaning yomonligini doimo eslatib turadi. Ularning rivojlanishi shart-sharoitlarini ta’minlaydi.

Pedagoglar bolaning dastlabki tabiiyachisi sifatida oilaning yetakchi rolini tan olishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog bolaga oila bilan hamkorlikda madaniyatni, kattalar va tengdoshlari bilan muloqatni, bolani kattalar bilan muloqot qilishda odob qoidalariga rioya qilishga, ota-onalar bilan samimiy ohangda so‘zlashish, odob bilan muloqotga kirishish (*salomlashadi, xayrlashadi, minnatdorchilik bildiradi*), yuzaga keladigan nizolarni muloyimlik bilan bartaraf kabi muhim va eng zarur ko‘nikmalarni singdirish, jamiyat me’yorlari va qonun-qoidalari bilan mos holda “yaxshi”, “mumkin”, “mumkin emas”, “bajarish zarur” kabi tushunchalarni faqat tushunish emas, balki shu holatlarni bajarishga odatlantirib borishga hamkorlikda ish olib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy faolligini oshirish unga oilada, maktabgacha ta'lim tashkilotida kim va qanday ta'sir etayotganiga bog'liq. Vaqtining katta qismini bola maktabgacha ta'lim tashkiloti va uyda o'tkazadi, shuning uchun pedagoglar va ota-onalarning ta'siri bir-biriga zid bo'lmasligi, aksincha, bola tomonidan ijobiy va faol qabul qilinishi kerak. Bunga pedagoglar va ota-onalar hamkor va hamfikir bo'lib, tarbiyaviy muammolarni bahamjihatlik bilan hal etish orqaligina erishish mumkin.

Bolani jamoa yoki jamiyatga kirib borishini, boshlagan ishni yakuniga yetkazish qobiliyati, o'z yutuqlarini tan olish, maqsadni belgilash va unga intilishini samarali rivojlantirish uchun pedagoglar o'zlari tarbiyalayotgan bolalarning birlamchi vazifalarini bilishlari, ularning oilasi haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga qatnayotgan bolalarning ota-onalari bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlariga quyidagi faoliyat yo'nalishlarini tavsiya etish mumkin:

1. Ota-onalarda maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagoglari bilan hamkorlik qilishga intilishni shakllantirish.
2. Bolalarning imkoniyatlari, talab-ehtiyojlari va qiziqishlarni baholashda, uning maktabgacha ta'lim tashkilotiga kirishiga ko'maklashish.

Ota-onalarning maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy faolligini oshirish bo'yicha pedagogik kompetentligini oshirish ota-onalarga uyda bola bilan boshlagan ishni yakuniga yetkazish, muayyan harakatlarni muvaffaqiyatli bajarish, o'z yutuqlarini tan olish, maqsadni belgilash va unga intilish yuzasidan suhbat o'tkazish uchun zarur bo'lgan metodik usullarni o'rgatish; ota-onalarga bola shaxsini rivojlantirish uchun xizmat qiladigan maxsus tarbiya usullarini o'rgatish.

Ota-onalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga jalb etilishi bolalarga ham, ota-onalarga ham, maktabgacha ta'lim tashkiloti ham foyda keltiradi. Muloqot, o'zaro hurmat, bola manfaatlarining muhimligini e'tirof etish samarali hamkorlikka asos bo'lib xizmat qiladi. Samarali hamkorlik shakllantirilishi uchun pedagoglar va ota-onalar o'zlarida yangi ko'nikma va bilimlarni rivojlantirishlari kerak.

Pedagog uchun oila shunchaki ta'sir ob'ekti sifatida xizmat qilmasligi kerak, pedagoglar bola uchun oila uning shaxs sifatida shakllanishini belgilab beradigan zarur muhit ekanini o'zlari ham tushunishlari, ota-onalarga ham tushuntirib berishlari zarur. Shuning uchun ota-onalar ularning pedagogik jarayon doirasiga jalb etilishi, ularning faol ishtiroki pedagog shunday bo'lishini xohlashi uchun emas, bu o'z bolasining rivojlanishi uchun muhim bo'lgani uchun kerakligini tushunib yetishlari zarurdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari.– T.:2018.
2. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi.– T.:2018.
3. O.U.Xasanbaeva va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi, 2006. – 136 s.
4. M.V. Korepanova va Ye.V.Xarlamova. Maktabgacha ta'lim 2100" ta'limiy tizim – 2009.